

experienced writers focus more on the seven rhetorical situations (purpose, audience, and context) when writing their piece. They carefully consider the information and rhetorical strategies that will work best in the given situation. This means that they consider and rank various pieces of information or actions in terms of how they might contribute to the larger rhetorical objective, and they use this strategic thinking to decide whether to include or reject materials. During the organization stage, novice authors typically present information chronologically. Experienced writers, on the other hand, tend to think about how different ways to arrange the information help them achieve their rhetorical goal. They check to see that the structure of the organization meets the rhetorical situation. They anticipate what the reader would like to know about their essays or whether or not they would agree or disagree with particular parts. To put it another way, they actively consider the reader's expectations and reactions during the writing process. When they are writing or revising, novice writers frequently have trouble deciding what to say next (in the following sentence). Before deciding how to proceed, they typically reread the preceding sentence or clause. Typically, they are overly concerned about spelling and grammar errors. As a result, their vocabulary and sentence structures are typically straightforward. They are probably preoccupied with writing's minute details in general. On the other hand, experienced writers refer to the macro rhetorical

goal when deciding what to say next. This strategic goal anticipates the reader's expectations and possible agreement or disagreement. They select words that are appropriate for the overall rhetorical circumstance and ensure that the content and organization will assist them in achieving their objective. They frequently rewrite or reorganize texts in larger chunks, such as paragraphs, guided once more by the larger rhetorical objective. It is important to note that writers using the knowledge transformation approach to writing and the information-focused approach to writing have distinct ways of thinking. It is extremely difficult, if not impossible, to observe how "novice writers make the cognitive transition to a knowledge transforming model, nor do they spell

out whether the process is the same for all learners" in practice (Hyland, 2011, p. 19). When writing information reports or entries for an encyclopedia, for example, even experienced writers will sometimes employ the information-focused approach because it is more appropriate. The author's responsibility in this type of writing is to explain and impart their knowledge of the subject matter. e. Building an argument at both the macro and micro levels From the previous section, we learned that making sure to include information relevant to the essay's macro-rhetorical objective can help us build an argument at the essay's broad discourse level.

References

1. Bereiter C., & Scardamalia, M. (1987). The psychology of written communication. Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum.
2. Canagarajah A. S. (2006). Negotiating the local in English as a lingua franca. *Annual Review of Applied Linguistics*, 26, -P. 197-218.
3. Chandrasegaran A., & Schaetzel, K. (2004). Think your way to effective writing (3rd ed.). Singapore: Pearson/Prentice Hall
4. Crossley S. A., Roscoe, R., & McNamara, D. S. (2014). What is successful writing? An investigation into the multiple ways writers can write successful essays. *Written Communication*, 31(2), 184-214.
5. Crossley S. A., Weston, J., McLain Sullivan, S. T., & McNamara, D. S. (2011). The development of writing proficiency as a function of grade level: A linguistic analysis. *Written Communication*, 28(3), 282-311.
6. Ferris D. R. (2014). *Language power: Tutorials for writers*. Boston, New York: Bedford/St. Martin's.
7. Hyland K. (2011). Learning to write: issues in theory, research, and pedagogy. In R. M. Manchón (Ed.), *Learning-to-write and writing-to-learn in an additional language* (pp. 17- 35). Amsterdam: John Benjamins.
8. Leki I. (1992). *Understanding ESL Writers: A guide for teachers*. Portsmouth, New Hampshire: Boynton/Cook Publishers
9. McNamara D. S., Crossley, S. A., & Roscoe, R. (2013). Natural language processing in an intelligent writing strategy tutoring system. *Behavior Research Methods*, 45(2), 499-515.
10. Silva T. (1990). Second language composition instruction: developments, issues, and directions in ESL. In B. Kroll (Ed.), *Second language writing: Research insights for the classroom*. Cambridge, UK: Cambridge University Press.

РЕЗЮМЕ. Yozishni o'rgatish jarayonida o'qituvchilar darslarni samarali tashkil etish uchun to'g'ri yondashuvlarni tanlash imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak, shuning uchun yozish uslublarini aniq tushuntirish nuqtai nazaridan yondashuvlarni tanlashning roli juda muhimdir.

РЕЗЮМЕ. В процессе обучения письму преподаватели должны уметь выбирать подходящие подходы, чтобы организовать уроки более продуктивно, поэтому роль выбора подходов имеет решающее значение с точки зрения четкого объяснения стилей письма.

SUMMARY. In the process of teaching writing instructors need to be able to choose appropriate approaches in order to organize lessons more productive, therefore, the role of selecting approaches is crucial in terms of explaining writing styles clearly

TALABALARDA MULOQAT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI

K.Y.Uzakova – doktorant

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: muloqot, ijobiy ta'sirlar, namunalar asosida o'zini-o'zi tuzatish, qayta tarbiyalash, shaxsiy imkoniyat, muomala maromi, mulohaza yuritish uslubi, munosabatga kirishish uquvchanligi.

Ключевые слова: общение, позитивное влияние, само коррекция на основе ролевых моделей, перевоспитание, личная возможность, этикет, стиль рассуждений, реляционная гибкость.

Key words: communication, positive influences, self-correction based on role models, re-education, personal opportunity, etiquette, reasoning style, relational flexibility.

Muloqot muvaffaqiyatining negizi shaxsning ruhiy dunyosi, ehtiyojlari motivatsiyasi, xarakter xislati, individual-tipologik xususiyati, qobiliyati, e'tiqodi kabi fazilatlar, sifatlar namoyon bo'lishi, rivojlanishi hisoblanadi. Muloqot tashqi ijobiy ta'sirlar, namunalar asosida o'zini-o'zi tuzatish, qayta tarbiyalash, shaxsiy

imkoniyatini ro'yobga chiqarish uchun puxta zamin hozirlaydi, komillik sari yetaklaydi. Barkamol insonlarning muomala maromi, mulohaza yuritish uslubi, munosabatga kirishish uquvchanligi, vaziyatdan chiqish salohiyatiga boshqa odamlar ham taqlid qiladi va hayot tajribasida unga rioya etib yashaydi.

Odamlar o'rtasidagi shaxslararo munosabat jarayonida g'ayritabiiy ijtimoiy holat yoki hodisaga ongli tayanish

— o'zini-o'zi mukammallashtirish, ro'yobga chiqarish, boshqarish, baholash, o'zigao'zi buyruq berish shaxsning ruhiy dunyosida muhim kamolot bosqichidir. Shuning uchun ichki va tashqi taqlidni tushunish hamda bosqichma-bosqich egallab borish

— bo'lg'usi mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi hamda barkamol shaxs sifatida shakllanishining garovidir.

Muloqotga kirisha olmaslikning asosiy sababi

— o'zini-o'zi ortiqcha yoki past baholash tufayli o'ziga va uni qurshab turgan odamlarga noto'g'ri munosabatdir.

Buning oldini olish imkoniyatlari mavjud bo'lib, asosan, quyidagilarga ahamiyat berish ijobiy samara beradi:

1) hamkorlik faoliyatida, muloqotlar tizimi orqali muloqot jarayonining barcha a'zolari o'rtasida insonparvarlik munosabatlarini tashkil qilish, emotsional muhitni taqqoslash imkoniyatini yuzaga keltirish;

2) muloqotda ichki munosabatlar tizimida har bir a'zoning qulay mavqeini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish;

3) insonning muloqot xususiyatlari, maromi, usullari, shakllari to'g'risidagi axborotni egallashiga oid maxsus mashg'ulotlarni uyushtirish.

4) shaxslararo munosabatlar va muloqot usullariga mo'ljallangan ishbilarmonlik o'yinlari, psixodrama, trening tizimini yaratish.

Inson o'zini idora qilish, turli vaziyatlarda o'zini tutish fazilatlarini o'zlashtirayotgan davrda ba'zi bir qoidalariga rioya qilsa, hamkorlik jarayonida ma'lum yutuqlarga erishadi:

1. Ijtimoiy hodisalarning tashqi voqe bo'lishi ichki ruhiy holat va uning mazmunini aks ettirib ikki tomonlama aloqa tufayli mazkur jarayon yuzaga keladi.

2. Ixtiyoriy, faol diqqatning tashqi obyektlarga yo'naltirilganligi va to'planganligi turli omillar ta'siri tufayli samaradorlik darajasini pasaytiradi, asabiy holat ishchanlikni kamaytirib, muloqot maromiga putur yetkazadi.

3. Inson o'zini erkin, ozod, bemaol his etish hislatini o'zlashtirishi uchun jismoniy keskinlik, asabiy taranglik, aqliy zo'riqish orqali ko'zlangan maqsadiga yetishi mumkin [1].

Insonning uni o'rab turgan olamga o'zaro ta'siri obyektiv munosabatlar tizimida namoyon bo'ladi. Obyektiv munosabat va aloqalar so'zsiz har qanday real guruhlarda paydo bo'ladi. Guruh a'zolarining bu obyektiv o'zaro munosabatlari subyektiv shaxslararo munosabatlarda aks etadi. Har qanday ishlab chiqarish odamlarning o'zaro birlashishini talab qiladi. Hech bir kishilik jamiyatida odamlar bilan munosabat o'rnatilmasa, ular bir-birini to'g'ri tushunmaydi, to'laqonli birgalikdagi faoliyatni tashkil eta olmaydi. Masalan, o'qituvchi o'quvchilarga biror mavzuni o'rgatish uchun ular bilan munosabatga kirishish! kerak. Muloqot kishilarning hamkorlikdagi faoliyati, ehtiyojlari asosida tug'iladigan, ular o'rtasidagi aloqa rivojlanishining ko'p qirrali jarayonidir. Muloqot hamkorlikdagi faoliyat qatnashchilari o'rtasida axborot almashinishni o'z ichiga oladi, bu muloqotning kommunikativ ko'rinishida ifodalanadi. Odamlar bir-biri bilan munosabatga kirishishda tildan muomala vositasi sifatida foydalanadilar.

Muloqotning ikkinchi jihat muomalaga kirishuvchilarning o'zaro ta'siridir. Bunda faqat so'zlar emas, balki harakat va holatlar ham almashinadi.

Masalan, O'qituvchi bilan talabar o'rtasida biror so'z aytmasdan muomalaga kirishish mumkin.

Muloqotning uchinchi tomoni muomalaga kirishuvchilarning bir-birini idrok qilishidir. Muomalaga kirishuvchilarning bir-birini to'g'ri tushunishi muhim ahamiyatga ega. Shunday qilib, muloqotning shartli uch tomonini ajratish mumkin:

Kommunikativ (axborot berish),

Interaktiv (o'zaro ta'sir) va

Perseptiv (o'zaro idrok qilish).

Muloqotning bu uch tomonining birligi muomalaga kirishuvchi kishilarning o'zaro munosabati va hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish usuli sifatida namoyon bo'ladi.

Muloqotning mazmuni — axborot almashish, o'qituvchi tomonidan turli kommunikativ vositalar yordamida o'quvchilar bilan o'zaro tushunish va o'zaro munosabatlarni tashkil etishdir. Pedagoglarning tarbiyaviy va didaktik vazifalarini o'qituvchi hamda o'quvchilar jamoasi o'rtasida munosabatlarni ta'minlamay turib amalga oshirib bo'lmaydi. Birgalikdagi faoliyat davomida odamlar turli fikrlar, o'y-xayollar, his-kechinmalar bilan o'rtoqlashadilar.

Bunda o'y-fikrlar, his-kechinmalarni axborot sifatida, kommunikatsiyani esa axborot almashinuvi sifatida talqin etish mumkin. Ammo insonlararo kommunikatsiya shunchaki axborot almashinuvidan iborat emas.

Chunki muloqot jarayonida axborot nafaqat uzatiladi, balki shakllantiriladi, aniqlashtiriladi, rivojlantiriladi. Demak, inson muloqotini shunchaki axborot almashinuvidan iborat jarayon, deb hisoblash mumkin emas. Muloqot jarayonida axborot bir tomondan ikkinchi tomonga harakatlanishdan tashqari, faol almashinadi (kommunikativ jarayon ishtirokchilari bir-biriga axborot yuborayotganda, bir-birining motivlari, maqsadlari va boshqalarni tahlil qiladilar).

Shuningdek, muloqot jarayonida axborot almasha turib, kishilar belgilar tizimi orqali bir-biriga ta'sir etishi mumkin (insonlararo axborot almashinuvida, albatta, suhbatdosh xulq-atvoriga muayyan ta'sir o'tkaziladi). Muloqot jarayonida kommunikator (axborot yuborayotgan kishi) va retsiyent (axborot qabul qilayotgan kishi) bir xil kodlashtirish hamda dekodlashtirish tizimiga ega bo'lishi kerak. Yagona tizimni qabul qilishgina kommunikativ jarayon ishtirokchilariga bir-birini tushunish imkonini beradi.

Muloqot jarayonida faqat insonlararo kommunikatsiyaga xos to'siqlar vujudga kelishi mumkin. To'siqlar nafaqat belgilar tizimidagi farqlar, balki ijtimoiy-siyosiy, diniy, kasbiy farqlar yoki umuman dunyoqarash, olamni his etishdagi farqlar tufayli vujudga kelishi mumkin.

Muloqotning o'zaro birgalikda harakat qilish va faoliyat ko'rsatish jarayonida odamlarni birlashtiradigan umumiy narsa ishlab chiqarish tarzida tushunilishi ana shu umumiy narsa muloqot vositasi sifatidagi tildan iborat ekanligini bildiradi. Til muloqotga kirishuvchilar o'rtasida aloqa bog'lanishini ta'minlaydi. Uni bu maqsad uchun tanlangan so'zlar mohiyatiga ko'ra kodlashtirgan holda axborotni ma'lum qilayotgan kishi ham, bu mohiyatning kodini ochgan, ya'ni uning ma'nosini oshkor etgan va ana shu axborot asosida o'z xulq-atvorini o'zgartirgan holda bu axborotni qabul qilayotgan kishi ham tushunadi.

A.V.Petrovskiy fikricha, axborotni boshqa kishiga yo'llayotgan kishi (kommunikator) va uni qabul qilayotgan kishi (retsiyent) munosabat va birgalikdagi faoliyat maqsadlariga erishish uchun mohiyatlarni kodlashtirish va kodini ochishning bitta yagona tizimidan foydalanishlari, ya'ni bitta tilda so'zlashishlari kerak. Mohiyat — belgining tevarak-atrofdagi voqelikni bilishni ifoda etadigan qism sifatidagi mazmunga ega bo'lgan jihatidir. Qurol odamlarning mehnat faoliyatini ifodalagan singari belgilar ham ularning bilish faoliyati va munosabatini namoyon qiladi.

lashtirish va uzatish vositasi sifatidagi tilni tarkib toptiradi. Til yordamida muloqotga kirishish tufayli borliqning alohida bir kishining miyasidagi in'ikosi boshqa odamlarning miyasida aks etayotgani bilan doimiy ravishda to'ldirilib turadi — o'y-fikrlarini ayirboshlash, axborot uzatish ro'y beradi. O'qituvchi u yoki bu so'zni ishlatganda

uning o'zi ham, uning tinglovchilari ham yolg'iz o'sha bitta hodisani nazarda tutishadi va ularda anglashilmovchilik yuz bermaydi. Mohiyatlar tizimi kishining butun hayoti davomida rivojlanib va boyib boradi.

Shunday qilib, faoliyat muloqotning bir qismi, uning tomoni; muloqot faoliyatining bir qismi va tomonidir. Lekin muloqot va faoliyat barcha hollarda yaxlit (buzilmas) birlikni tashkil etadi.

Til muomala vositasidir. Til muomalaga kirishuvchilar o'rtasidagi kommunikatsiyani ta'minlaydi, chunki uni axborot beruvchi ham, axborotni qabul qiluvchi ham birday tushunadi. Boshqa kishiga axborot beruvchi (kommunikator) va uni qabul qiluvchi (retsipiyent) muloqot jarayonida bir xil tildan foydalanishi kerak, aks holda bir-birini to'g'ri tushunolmaydi. Axborot almashishda bola onasiga savollar beradi va u javob beradi, bu javoblardan bola o'z faoliyatida keyinchalik foydalanadigan umumiy bilimlarning faqat ozgina qismini oladi. Umumiy bilimlarning bu qismini bola til shaklida, til yordamida so'z belgilari tizimida hosil qila oladi. Oliy o'quv yurtlarida ham xuddi shunday bo'ladi: Talaba yangi mavzu haqida barcha bilimlarni o'qituvchining tushuntirishidan yoki darslikdan, ya'ni til yordamida o'zlashtiradi. Bu yerda til o'zining muhim vazifalaridan birini bajaradigan, ya'ni yashash vositasi, ijtimoiy-tarixiy tajribani berish va o'zlashtirish vositasi tarzida namoyon bo'ladi.

Har bir alohida odamning ish-harakati va faoliyatini ko'pincha ijtimoiy qiymatga ega bo'lmagan o'zga kishilarning bevosita tajribalari belgilaydi. Masalan, men oshxona tomon yo'l olaman. Yo'lda o'rtog'im uchrab menga: «oshxona yopilgan», deydi. Shu paytda bu xabar mening faoliyatimni ma'lum bir tarzda boshqaradi: men qayrilib, boshqa oshxona tomon jo'nayman. Bu yerda til o'zining boshqa muhim vazifasi bilan, ya'ni vosita yoki kommunikatsiya usuli yoki odamning xatti-harakatlarini boshqaruvchi bir vosita sifatida namoyon bo'ladi. Har qanday kommunikatsiya, har qanday munosabat suhbatdoshiga ta'sir qilishdan iboratdir.

Har bir alohida odamning ish-harakatlari va faoliyatlarini har bir ayrim kishilarning shaxsiy tajribasi belgilaydi. Odamning «shaxsiy» tajribasi, o'z individual tajribasi boshqa kishilarning tajribalari va ijtimoiy tajribaning o'ziga xos aralashmasidan iborat. Odam hayvondan farqli o'laroq, o'z harakatlarini rejalashtira oladi. Bunday rejalashtirishning va umumiy fikriy masalalarni hal qilishning asosiy quroli tildir. Demak, biz tilning vazifasi aqliy faoliyatning (idrok, xotira, tafakkur, xayol) quroli sifatidagi vazifasidir. So'z belgilar tizimi sifatida tildan nutq faoliyatida foydalaniladi.

O'quv yurtlaridagi talabalarni kelajakda yosh avlodni tarbiyalash jarayonida tarbiya vazifalarini amalga oshirishi jarayoni, o'quvchilarga ko'rsatadigan ta'siri o'quvchi ko'rib, eshitib va bajarib borayotgan mazmunlarning muayyan darajada o'zgarishini taqozo qiladi. Pedagog ko'rsatadigan ta'sirning turlicha samara kasb etishi zamirida uning shaxsiyatiga oid xususiyatlar, uning o'zini davom ettirish, o'zining shaxsiyatiga oid mazmunlarni yoshlarga o'tkaza bilish qobiliyati, uning pedagogik munosabati xarakteri va samaradorligi mujassamlashgandir.

Pedagogik muloqot — pedagogik ta'simning ajralmas sifatidir. Bu o'qituvchi va o'quvchining ta'lim-tarbiya jarayonidagi professional muloqoti bo'lib, unda ma'lumot almashinadi va o'quvchilarga o'quv-tarbiyaviy ta'sir o'tkaziladi. Bunda ikki yoqlama muloqot yuzaga kelishining asosi sifatida o'zaro hurmat va ishonch xizmat qiladi. Pedagog o'quvchilar bilan muloqotga kirishish jarayonida ulardan hurmat kutadi. O'quvchilar ham o'qituvchidan hurmat va ishonchni talab etadilar. Bu pedagogik ta'sirning samarali yo'li bo'lib, tajribali pedagoglar bolaning o'z-o'zini hurmatlashiga asoslangan holda munosabatlarni tashkil etadilar va shu orqali o'zaro munosabatlarni amalga oshiradilar.

Muloqotning o'ziga xos 3 ta darajalari mavjud. Bular: makro darajada (katta) — insonlar bilan muloqot qilish barcha odob-axloq normalariga suyangen holda amalga oshiriladi. Mezo darajada (o'rta) — muloqot ma'lum mavzu asosida kechadi (masalan, askiyada ma'lum mavzudan chekinmaslik).

Mikro daraja (kichik) — muloqotning oddiy shakllari, savol-javob tariqasida yuz beradi. Muloqotning turlari: shaxslararo (inson-inson), shaxsiy-guruhiy (guruh-guruh), ommaviy kommunikatsiya (radio, televideniye, ro'znomalar va oynomalar) kabi turlari mavjud [2].

Pedagogik muloqotda ijodiylik quyidagilarga bog'liq:
— o'quvchilar bilan o'zaro birgalikda harakat qilish (A.A.Bodalev);

— bolaga ta'sir qilishda uning xulq-atvorini boshqarish, o'zaro harakatning turli yo'llarini qo'llash;

— o'qituvchining o'z-o'zini boshqara olishi; — o'zaro munosabatlar jarayonidagi ijodiylik xarakterini saqlay bilish (Ya.L. Kolominskiy, A.V. Petrovskiy).

Demak, o'qituvchi o'quvchilar bilan ziddiyatlarga borsa, qandaydir muammo tug'lsa darhol hal qilishi lozim. Pedagogik muloqotdagi ijodiylik ham shunda bilinadi. Pedagogik muloqotda o'qituvchi bolaning ko'ziga qarab uning xayolidan nima kechayotganligini bilib olishi kerak. Ijodiylik o'zaro munosabatlardan boshlanadi.

Har bir pedagog o'z tajribasidan, uslubidan kelib chiqib bolalar bilan muloqotda bo'lishi, nstandart usullarni izlab topishi kerak. Pedagogik ta'sir ham pedagogik muloqotdagi ijodiylik orqali amalga oshiriladi.

Ijodiylikni amalga oshirish uchun quyidagilarga ahamiyat berish lozim:

— bir necha o'qituvchilarning darslarini kuzatish, unda o'quvchilarning kayfiyatini, o'qituvchining bolalar bilan bo'ladigan munosabatlarini o'rganish;

— o'qituvchining darsda qanday usullarni qo'llashi, muloqotni qanday tashkillashtirish, o'quv-tarbiyaviy muammolarni yechishini aniqlash;

— o'zining muloqot texnologiyasini boshqa o'qituvchining texnologiyasiga taqqoslashi;

— tajribali o'qituvchilarning tarbiyaviy soatlarida qatnashish orqali muloqot jarayonidagi o'quvchilarning individual xususiyatlarini aniqlash;

— o'zining darsidagi muhit bilan boshqa tajribali o'qituvchining darsidagi muhitni taqqoslash orqali xulosa chiqara olish [3].

Kasbiy-pedagogik muloqot — murakkab hodisa. Shaxs kasbiy-pedagogik muloqot qilishdan avval o'z oldiga bir necha vazifalarni qo'yadi. Jumladan, muloqot maqsadini, muloqot qachon, qayerda, necha yoshlilar bilan o'tkazilishini rejalashtiradi.

Pedagogik muloqotning eng muhim bosqichi — modellashtirish hisoblanadi. Bu bosqichdan muhim, mas'uliyatli muammoni hal qilishda foydalaniladi. Masalan, darsga tayyorlanish, ma'ruzani rejalashtirish ham shu bosqichga kiradi.

Birinchi, dasturga mos ravishda dars loyihasi tuziladi.

Ikkinchidan, o'quvchilarning individual xususiyatlari hisobga olinadi. Uchinchi, dars jarayonida qo'llanadigan ta'lim-tarbiya usullari tanlanadi. To'rtinchidan, bolaning aqliy rivojlanish qobiliyati hisobga olinadi. Ikkinchi bosqich — bevosita muloqot bosqichi.

Buni «kommunikativ hujum» deb atash mumkin. Chunki O'qituvchi tashabbusni to'liq o'z qo'liga olib dars boshlaydi. Uchinchi bosqich esa muloqotni boshqarish bosqichi bo'lib, kasbiy kommunikatsiyaning muhim tarkibiy qismidir.

Kasbiy-pedagogik muloqotning vazifasi — texnologiyani o'zlashtirish bo'lib, unda o'qituvchi iliq munosabatlarni qo'llay oladi, natijada pedagog shaxsi namoyon bo'ladi.

Darsda tashabbusni qo'lga olish usullari quyidagilardan iborat:

- sinf bilan aloqani yo'lga qo'yishda zudlik bilan harakat qilish;
- tashkiliy ishlardan dars jarayonining muhim bosqichiga tezlik bilan o'ta olish;
- sinfnıng ijtimoiy-psixologik yakdilligini, «biz» hissini shakllantirish;
- vaziyatga qarab bolalar bilan muloqot usullarini qo'llash;
- butun sinf jamoasi bilan yaxlit aloqani tashkillashtirish;
- latofat, samimiylik, sofdillikni o'zida shakllantira olish, darsda namoyon qila olish;
- taqiqlangan pedagogik talablarni kamaytirish, vaziyatga qarab ish tutish;
- mimika (yuz ifodasi), pantomimika (harakatlar), ko'z bilan ta'sir qilish (noverbal muloqot) ni faol qo'llash;
- o'zaro bir-birini tushunishni his qilish (V.A. Kan — Kalik). Kasbiy-pedagogik muloqotning muvaffaqiyatli bo'lishida o'qituvchining kommunikativ madaniyati muhim o'rin egallaydi.

Bola o'qituvchining dildan gapirayotganligini his qilib turishi kerak. Aks holda ishonchli, samimiy muloqot amalga oshmaydi. Ayrim pedagoglar bolalar bilan ularning yoshini hisobga olmasdan muloqotda bo'ladilar. O'qituvchi bola katta bo'layotganligini sezib tursa, bu uning muloqot madaniyati shakllanayotganligidan dalolat beradi.

Muloqot madaniyati individual uslublarini shakllantirish metodikasi 1.O'quvchilar bilan muloqot qilish madaniyatining individual shaxsiy xususiyatlarini o'rganishi:

- o'quvchilar shaxsiy xususiyatlarini mustaqil tahlil qilish;
- o'quvchilar ichki imkoniyatlariga har tomonlama tavsif berish;
- o'qituvchining muloqot madaniyatini to'g'ri tashkil etishi.

2.Shaxsiy muloqotda ro'y beradigan kamchiliklarni darhol bartaraf etishi:

- kamchiliklarga barham berish choralarini darhol izlab topish;
- har qanday vaziyatda o'quvchilarga qo'pollik qilmaslik; S o'quvchi shaxsini mensimaslik kabi salbiy holatlarni bartaraf etish.

3.O'qituvchi o'zi uchun muloqot madaniyatining eng qulay bo'lgan uslublarini tanlab olishi:

- pedagogik faoliyatiga monand muloqot madaniyati modelini ishlab chiqishi;
- o'z-o'zini kuzatish bilan muloqotdagi yutuq va kamchiliklarini muntazam taqqoslab borishi;
- muloqotda milliy ma'naviyatimiz, urf-odat va an'alarimiz imkoniyatlaridan doimiy foydalanish.

4.Muloqot madaniyatida pedagogik faoliyat qonuniyatlaridan chetga chiqmaslik:

- har bir o'quvchining individual xususiyatlariga mos muloqot
- tizimini ishlab chiqishi;
- muloqotning tarbiyaviy ta'sirini va samarasini e'tirof etish; S muloqot madaniyati asosida pedagogik mahoratni namoyish etish.

Pedagogik faoliyatni endigina boshlayotgan yosh o'qituvchilar o'z kasbiy mahoratlarini oshirish maqsadida o'quvchilar bilan muloqot madaniyatini shakllantirish ustida muntazam ish olib borishlari zarur. Ta'lim-tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda pedagogik muloqot ma-daniyati o'qituvchi va o'quvchilarning bevosita o'zaro munosabatini ma'lum bir maqsad sari hamjihatlikka yo'naltiruvchi kuchdir.

Bu o'rinda o'qituvchi quyidagi vaziyatlarni e'tiborga olishni alohida ta'kidlash lozim: - o'qituvchining ilk tarbiyaviy faoliyatidan boshlab muloqot mada-niyatiga

rioya qilishi, bu jarayonda o'qituvchi va o'quvchilar jamoasi bilan har kungi muomalani vaziyatga qarab rejalashtirishi, har bir harakat, so'z ohangiga e'tibor, an'anaviy muloqotning eng yaxshi xusu-siyatlarini o'zlashtirishi; - muloqot asosida sinf jamoasidagi turli vaziyatlarni qayd etish, o'quvchilar xatti-harakatining oldingi holati bilan, tarbiyaviy faoliyatdan keyingi holatini qiyoslab chiqib baho berish; -o'z muloqot uslubi natijalarini tanqidiy nuqtai nazardan tahlil qilib, kamchiliklarni uzluksiz bartaraf etib borish.

Zarur so'z, ovozdagi yoqimli ohang, hulq-atvorni vujudga keltirish;

- pedagogik muloqot madaniyatining samarali kechishi uchun uning shartsharoitlarini bilib olishning o'zi kifoya qilmaydi, o'quvchilar bilan o'zaro muomalaning "ustoz-shogird" an'alariga xos boshlanishi va o'zaro fikr almashish asosida muhim vazifalarni hal qilish bilan muomala obyektining diqqatini o'ziga jalb qilish;

- muloqot obyekti, ya'ni o'quvchining diqqatini o'ziga jalb qilish deganda nimani anglash kerak? Buning ma'nosi o'qituvchi o'zining xushmuomalaligi, madaniyati, go'zal xulqi, muloqotda o'quvchilar qalbiga yo'l topa olishi bilan o'z mahoratini namoyish qilib, muloqot madaniyatining tashkiliy shakllariga ijtimoiy-psixologik negizni asos qilib olishidir.

Ko'rsatib o'tilgan vaziyatlar asosida pedagogik ta'sir ko'rsatish uchun, o'qituvchining pedagogik muloqot madaniyatiga, etikasi va odob-axloqiga, dilkashligiga, muosharat odobiga alohida talablar qo'yiladi. Ushbu fazilatlar o'qituvchining sinf jamoasida, otaonalar bilan muloqot qila bilishida, o'quvchilar bilan aniq maqsadni ko'zlagan holda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishida va ularni boshqara olishida muvaf-faqiyatlar garovidir.

Xulosa o'rnidashuni aytish mumkinki,Kasbiy faoliyatning noyob fazilati bo'lmish pedagogik muloqot madaniyatiga amal qiladigan yosh o'qituvchi quyidagi xususiyatlarni o'zida mujassamlashtirishi ya'ni shakllantirishi lozim:

- mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy talablari va ehtiyojlariga mos bo'lgan yuksak ma'naviyat darajasidagi qarashlar, kuchli va barqaror e'tiqod, davlatimiz ideallari, milliy g'oya va istiqloq mafkurasiga sodiqlik, vatanparvarlik, fidoyilik tuyg'ulari shakllangan ijtimoiy-siyosiy faol shaxs;

- o'quvchilarga samimiy mehr-muhabbat, ularning har qanday ehtiyojlari, qiziqishlari, xatti-harakatlari motivlarini, xulq-atvorlarini tushunish ko'nikmasi va malakasining shakllanganligi;

- jamiyatda ro'y berayotgan hodisalar, jahonda ro'y berayotgan voqealar, tabiatga, borliqqa, shaxslararo, guruhlararo, millatlararo munosabatlarga nisbatan pedagogik kuzatuvchanlik, yangilikka, ijodiy izlanishga nisbatan intilish qobiliyatining mayjudligi;

- pedagogik faoliyatning barcha jabhalarida odamlarning xatti-harakatlari, munosabatlaridagi xususiyatlarni oqilona tushunish, o'z faoliyatiga nisbatan refleksiv munosabatni tarkib toptirish;

- har qanday favqulotda vaziyatlarga, jamiyatda ro'y berayotgan yangiliklarga nisbatan hamda ijtimoiy

- iqtisodiy o'zgarishlarga omilkorlik va aql-idrok bilan munosabatda bo'lish, o'z oldiga to'g'ri maqsad qo'ya olish, reja tuzish, bevosita nazorat qilish, boshqarish va o'z imkoniyatlarini namoyon eta olish;

- pedagogik faoliyatlarda, jamoatchilik tizimida muvaqqat guruhiiy munosabatlarda ommaviy harakatlarda tashkilotchilik va boshqaruvchanlik qobiliyatini namoyish etishi;

- dunyoqarashi va tafakkur ko'lamining kengligi, dunyoviy bilimlarnibilishga nisbatan qiziqishining serqirraligi, ilmiy izlanishlarga moyilligi, muayyan ilmiy

salohiyat va pedagogik mahorat darajasini muntazam oshirib borishi;

- o'quvchilar bilan muloqotda layoqatliligi, nutq madaniyatining mantiqan ixcham, ma'noli, ta'sirchan

kuchga egaligi, psixologik ta'sir o'tkazish uslublari bilan qurollanganligi. Har bir o'qituvchi uchun o'quvchilarga to'g'ri, omilkor axborot uza-tish va unga suhbatdoshini ishonтира olishi kasbiy zaruriyat hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. E. G'oziyev. Muomala psixologiyasi. -T.: 2001, 23-b.
2. Davletshin M. G. Umumiy psixologiya. -T.: 2002, 62-b.
3. V.A.Kan — Kalik. Учителю о педагогическом общении. -M.: 15-16-b.
4. Mahmudov N.M. O'qituvchi nutq madaniyati. Darslik. -T.: O'zb. Milliy kutubxonasi, 2007, 185-b.
5. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. -T.: «O'qituvchi», 1996, 192-b.
6. Navoiy A. Mahbub ul-qulub. Asarlar 15-tom. - T.: "Fan" 2005.
7. Ochilov M. Muallim qalb me'mori: Saylanma. —T.: «O'qituvchi», 2000.
8. Omonov N.T. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahofat. -T.: "Iqtisodmoliya". 2009, 240-b.
9. Ilefharov H.Ka. (rioa pe,a. Il.H. FIHUKACHCTOro).- M.: neaarorHec-Koe o6uqecTBO POCCHH, 2003, -P.608.

РЕЗЮМЕ. Muloqot — shaxslararo munosabatlarning asosiy ko'rinishi bo'lib, uning yordamida odamlar bir-birlari bilan o'zaro ruhiy jihatdan aloqaga kirishadilar, o'zaro axborot almashadilar, bir-birlariga ta'sir o'tkazadilar, bir-birlarini his qiladilar, tushunadilar. Shuning uchun muloqot ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida ijtimoiy turmushning barcha sohalarida ishtirok etib, hamkorlik faoliyatining moddiy, ma'naviy, madaniy, emotsional, motivatsion qirralarining ehtiyoji sifatida vujudga keladi. Insonda yuzaga keladigan har xil ehtiyojlamini maqsadga muvofiq ravishda qondirish muloqot maromiga bog'liq bo'lib, shaxslararo munosabat barkamol avlod, komil inson g'oyalari qaror topishiga xizmat qiladi.

РЕЗЮМЕ. Общение — это основная форма межличностных отношений, с помощью которой люди мысленно общаются друг с другом, обмениваются информацией, влияют друг на друга, чувствуют и понимают друг друга. Поэтому общение как социально-психологическое явление принимает участие во всех сферах общественной жизни и возникает как потребность в материальном, духовном, культурном, эмоциональном, мотивационном аспектах сотрудничества. От ритуала общения зависит удовлетворение всевозможных потребностей человека в соответствии с целью, а межличностные отношения служат утверждению идеалов совершенного поколения и совершенного человека.

SUMMARY. Communication is the main form of interpersonal relations, with the help of which people communicate with each other mentally, exchange information, influence each other, feel each other and understand. Therefore, communication as a socio-psychological phenomenon takes part in all spheres of social life and arises as a need for material, spiritual, cultural, emotional, motivational aspects of cooperation. Satisfying all kinds of human needs in accordance with the purpose depends on the ritual of communication, and interpersonal relations serve to establish ideals of a perfect generation and a perfect person.

MILLIY DASTURLER, ÚRP-ÁDETLELDÍN TIYKARGÍ FUNKCIYALARI HÁM RUWHÍY TÁRBIYADAĞÍ ÁHMIYETI

S.M.Utepbergenova – magistrant

Ájiniyaz atındađı Nókis mámleketlik pedagogikalıq instituti

Tayanch so'zlar: dastur, milliy dasturlar, urf-odatlar, millat, tarbiya, milliy tarbiya, mentalitet.

Ключевые слова: программа, национальные программы, традиции, нация, образование, национальное воспитание, менталитет.

Key words: program, national programs, traditions, nationality, upbringing, national upbringing, mentality.

Milliy dástúrlar, úrp-ádetler jámiyettegi sociallıq qatnasqlardıń túrlerin, mádeniyatınıń dárejesin kórsetiwi menen birge tárbiyanıń da tiykargı quralların adamlardı jámiyetlik qadağalawdıń hám biriktiriwdiń áhmiyetli formasında kórsetedi.

Jer júzinde eki mıńnan aslamıraq milletler, xalıqlar, qáwimler bolsa, olardıń hár qaysısınıń milliy dástúrleri, úrp-ádetleri bolıp, bular xalıqtıń ruwxıy faktori bolıp xızmet etedi. Tiyyarınan, óziniń bay tariyxına iye bolğan xalqımızdıń da ózine tán dástúrleri, úrp-ádetleri milliy mentaliteti sheńberinde qalıplesken bolıp, ásirler dawamında ruwxıy qádriyat sıpatında áwladtan-áwladqa ótip keledi. Buni biz shańaraqta bar bolğan tárbiyalıq kórinislerde gúzetiwimiz múmkin. Búgingi kúnimizde de óziniń jańasha kórinislerinde sáwlelenbeke.

Milliy dástúr - degenimiz haslında áwladtan-áwladqa jetkeriletuǵın hám tariyxıy tiyykarda qalıplesetuǵın úrp-ádet, ulıwmalıq tártip, ádep-ikramlılıq norması bolıp esaplanadı. Úrp-ádetlerdiń kopshiligi shańaraqlıq turmisqa tiyisli bolıp, balanıń tuwılıwı hám tárbiyası (besik toyi, súnnet qılıw), neke (pátiya toyi, toy) menen baylanıslı boladı.

Milliy dástúr hám úrp-ádetlerdiń eń áhmiyetli ulıwmalıq funkciyası adamlar arasındađı rawajlanıwshı hám ózgeriwshı turaqlılıqtıń ózin támiynlew bolıp tabıladı. Turaqlılıq bolmasa rawajlanıw bolıwı múmkin emes. Turaqlılıqtı támiynley otırıp milliy dástúrlar, úrp-ádetler jámiyetlik bolmıstıń tiykargı áhmiyetli jaǵdayın dúzedi. Tariyxtıń hár bir jańa basqışında jámiyetlik qatnasıqlar tek saqlanıp ǵana qalmasan, al ózgerip jańalanıp ta turadı.

Solay etip, milliy dástúrlar, úrp-ádetler arqalı qayta óndiriw payda boladı, eski qatnasıqlardan házirgi hám keleshektegi qatnaslar payda bola basladı. Usınıń nátiyjesinde hár bir jańa áwlad ótker ásirlerdiń miyrasınan tásir alıp, ótkendegige boysınıwǵa májbúr boladı.

Milliy dástúr hám úrp-ádetler óndiris usılların hám oǵan saykes keletuǵın óndiris qatnasıqların tártiplestiriw formaları ǵana emes hám olardı ózimshelilikten, tosqınlıqtan azat etiwdiń quralı bolıp esaplanadı.

Milliy dástúrlar, úrp-ádetlerdiń jáne bir áhmiyetli funkciyası saqlawshılıq yaqi qadağalawshılıq. Belgili francuz sociologi E.Dyurkgeym bılay dep jazadı: «Dástúr adamlardıń jámiyetten tayar túrinde tabatuǵın, olardıń tártiplerin jónleytuǵın hám háreketke keltiretuǵın qaǵıydaları bolıp esaplanadı. Dástúrdi buzǵanı ushın berilgen jaza toparlardıń birligin saqlawǵa járdemlesetuǵın saqlawshı qural bolıp tabıladı» [1].

Milliy dástúrlar, úrp-ádetlerdiń jámlestiriw funkciyası da bar. Bunda milliy dástúr hám úrp-ádetler sociallıq birlikti qalıplestiriwdiń quralı hám tiykarı, nızamı sıyaqlı bolıp kórinedi. Bunıń anıq mısallarınıń biri - mánawiy birigiwler, olardıń awızbirshiligin hám jámleniwin saqlawǵa urnıwshılıq esaplanadı. Shınında da milliy dástúr hám úrp-ádetler jámlestiredi, aralastıradı, qalıplestiredi. Sonıń menen qatar dástúrdiń jámiyetshiligi geyde tikkeley emes, al qıyalyı sırtınan qosıp qoyıw jaǵdayında da bolıwı múmkin. Mısalı: «ózimizdiń balaǵoy» degen sıyaqlı jámlestiriwshilik.